Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy muammolardan yana biri jamiyatning har bir a'zosi uchun ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishdir. Ayniqsa, mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, kasb-hunarga yo'naltirish, jamiyatga uyg'unlashtirish kabi masalalar davlat siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi, chunki O'zbekistonda taraqqiyotning besh tamoyilidan biri – kuchli ijtimoiy siyosat maqsadli yo'lga qo'yilganligi bois, aholining ko'makka muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash huquqiy jihatdan kafolatlangandir.

Ushbu davlat siyosatining yanada e'tiborli jihati shundaki, bugungi kunda respublikamizda imkoniyati cheklangan yoshlarni oliy ma'lumot bilan qamrab olish muammosi, ularning o'qishi uchun tegishli sharoitlarni yaratish borasida bajariladigan ishlar "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash" O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ko'rsatib berilgan. Konsepsiyada oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun o'qitishni tashkil etishdagi talablar ham "Imkoniyati cheklangan talabalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turini ko'paytirish va ularning sifatini yaxshilash, ta'limda inklyuziv jarayonlarni rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish" shaklida aniq ifodalab berilgan.

Imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim olish jarayoni inklyuziv ta'lim deb ataladi va uning ta'rifi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida alohida modda (20-modda) bilan belgilangan:

"Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan." Demak, inklyuziv ta'lim – bu har xil ehtiyojli bolalarning umumiy, o'rta va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, ular uchun ta'lim muassasalarida qo'shimcha adaptiv moslamalarning yaratilishini talab etuvchi innovatsion ta'lim tizimidir.

Hozirgi davrda respublikamizda imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ma'lumotli bo'lishi ta'lim tizimining dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammosi hisoblanadi, chunki iqtisodiyotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalar jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgani, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgaruvchan masalalarning ko'pligi va ularga tezkor yechimlar topish zarurati mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi ularning moddiy ehtiyojlarini qondirish va farovon hayot kechirishlari uchun eng maqbul yo'nalishlardan biridir. Yurtimizda ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlari turlicha bo'lgan shaxslarning oliy ta'lim muassasalarida va oliy ta'limdan keyingi barcha darajalarda sifatli ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash inklyuziv ta'lim asosida amalga oshirilmoqda. Masalan, 2018-yilda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ikki foizli kvota joriy qilinganidan so'ng, inklyuziv oliy ta'lim masalasi negizida imkoniyati cheklangan talabalar uchun universitetlarning o'quv binolari va yotoqxonalarini rekonstruksiya qilish, eshitish qobiliyati cheklangan talabalarni surdo tarjimonlar bilan ta'minlash, ko'rish qobiliyati cheklangan talabalar uchun maxsus o'quv qo'llanmalar va boshqa qulayliklar yaratish kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ishlar natijasida yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan yoshlarning soni ortib bormoqda. Birgina Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bakalavriat yo'nalishlari va magistraturasida hozirda 405 dan ziyod imkoniyati cheklangan talaba ta'lim olmoqda.

O'tgan davr mobaynida oliy ta'lim muassasalarida yuqoridagi moddiy-texnik ta'minotga oid muammolar imkoni boricha hal qilindi. Ammo talabalarni o'qitishdagi inklyuziv jarayonlar sifatini yaxshilash va ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi o'quv-uslubiy ta'minotga oid muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, elektron o'qitish vositalari, masofaviy va dual ta'lim shakllarida o'qitishning amaliy va nazariy usullarini qo'llagan holda imkoniyati cheklangan talabalarning mustaqil ishlash jarayonini izchil va sifatli tashkil etish orqali oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimiz maqsadi – inklyuziv ta'limga oid ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar tahlili natijasida inklyuziv ta'lim tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritib berish; uning maqsadi, vazifalari va ahamiyatini ko'rsatib berish; inklyuziv ta'limni oliy ta'lim muassasalarida joriy etishdagi kamchiliklarni aniqlash hamda ushbu ta'lim shaklini rivojlantirish va o'quv jarayonini sifatli tashkil etishga oid tavsiyalar berishdan iboratdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim muassasalarida joriy etish va rivojlantirishga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarda yoritilgan ba'zi mulohaza va tavsiyalarning sharhini keltirishga harakat qilamiz. Inklyuziv ta'lim yo'nalishidagi adabiyotlar tahlili xorijiy va MDH davlatlarida, shuningdek, O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxs-

larning xalq ta'limi tashkilotlarida ta'lim olishi uchun zarur barcha sharoitlarni yaratish bo'yicha izchil ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilayotganini hamda amaliyotga keng tatbiq etilayotganini ko'rsatdi [1,2,3,4,5]. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limning mavjud holatini tahlil qilish natijasida ushbu ta'lim jarayonini tashkil etishda ko'plab kamchiliklar mavjudligi, ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish va uni rivojlantirish zarurligi aniqlangan [6,7,8,9,10].

Inklyuziv ta'limning mohiyati, maqsadi, huquqiy-me'yoriy asoslari, inklyuziv ta'limga jalb qilingan nogiron bolalarning imkoniyatlari va jamiyatda tutgan o'rni, shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limning ilk asoschilari va olimlariga oid izlanishlar pedagog-tadqiqotchi M.B. Atabayeva tomonidan olib borilgan [3]. Tadqiqotchi olim X.I. Ibragimov O'zbekistonda inklyuziv ta'lim muammolari va rivojlanish istiqbollari masalalariga e'tibor qaratib, mamlakatimizda inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim bilan qamrab olish darajasi, ta'lim tizimi oldida turgan muammolar va ularning yechimlarini tadqiqiy jihatdan yoritib bergan [5].

Pedagog-olima R.J. Safarova inklyuziv ta'lim bilan ko'p millatli madaniyat o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligini va ushbu aloqalar shaxslarning ijodiy g'oyalarida, maqsad va vazifalarining umumiyligida namoyon bo'lishini ta'kidlagan [11]. Uning maqolasida inklyuziv ta'limning jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirishdagi o'zaro munosabatlar roli va ahamiyati ko'rib chiqilgan hamda inklyuziya quyidagicha ifodalangan: "Inklyuziya faqat salomatligida muammosi bor shaxslarga xos tushuncha emas, balki boshqa millat vakillariga nisbatan qo'llaniladigan madaniyatni anglatuvchi atamadir."

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim shaklini joriy etish zaruriyati va uni rivojlantirishning ahamiyati masalalari faqat pedagog-tadqiqotchi A.X. Shoyev tadqiqotlarida muhokama qilingan. Uning ilmiy ishlarida [9,10] mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ushbu ta'lim shaklini joriy etishdagi kamchiliklar, ularni bartaraf etish bo'yicha qator vazifalar va uni an'anaviy ta'lim shakliga samarali integratsiyalash va moslashtirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida inklyuziv ta'lim va uni oliy ta'lim muassasalarida joriy etish yo'nalishidagi pedagog olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari qiyosiy tahlil qilindi hamda natijalari umumlashtirish usuli orqali tahlil etildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda imkoniyati cheklangan shaxslar, inklyuziv ta'lim, inklyuziv iqtisodiyot, inklyuziv jamiyat kabi tushunchalar adabiyotda va internetdagi turli darajadagi munozaralarda ommaviylashib bormoqda, chunki yurtimizda alohida ehtiyojli va nogironlikka ega bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga, kasbiy va ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida o'zlarini to'liq namoyon eta olishlariga yuqori darajada ahamiyat berilmoqda.

Imkoniyati cheklangan shaxslar nogironlikka ega bo'lgan shaxslar deb ham ataladi, chunki ular jismoniy yoki aqliy nuqsonlari bor shaxslardir.

Jismoniy nuqsonlar – bu inson tanasidagi, ya'ni tayanch-harakat, eshitish, ko'rish a'zolarida va nutqida mavjud bo'lgan vaqtinchalik yoki doimiy yetishmovchiliklardir.

Aqliy nuqsonlar – bu insonning aqliy rivojlanishidagi, ya'ni inson a'zolaridagi yetishmovchiliklarning (shu jumladan, miya shikastlanishining) oqibati va inson ruhiyatining qo'pol buzilishlari hamda aqliy rivojlanishning sustligi natijasida mavjud bo'lgan vaqtincha yoki doimiy yetishmovchiliklardir.

Nogironlarni o'qitish murakkab, ko'p vaqt va mehnat sarflanadigan jarayon bo'lib, hozirgi kunda jahonda ularning ta'lim olishiga oid ko'pgina yondashuvlar mavjuddir. Ushbu yondashuvlarni o'rganish va tahlil qilishimiz natijasida ularning mazmun-mohiyatini quyidagi jadval ko'rinishida yoritishga harakat qildik.

1-jadval: **Imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim olishiga oid yondashuvlar**

| Yondashuvlar | Mazmun – mohiyati |
|---|---|
| Eksklyuziya | Uy sharoitida yakka tartibda ta'lim olish |
| Segregatsiya (ajratish, chetlatish) | Ixtisoslashtirilgan maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim olish |
| Integratsiya (birlashish, to'ldirish) | Umumiy ta'lim muassasalaridagi alohida tashkil etilgan guruhlarda ta'lim olish |
| Inklyuziya (uyg'unlashtirish, tenglashish) | Umumiy ta'lim muassasalaridagi umumiy ta'lim oluvchilar bilan alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda birgalikda ta'lim olish |

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, jahonning ko'pgina mamlakatlarida sog'lig'ida nuqsonlari mavjud shaxslarni umumiy ta'lim muassasalarida o'qitish, ya'ni integrasiyalash nomli yondashuv ishlab chiqilib,

amaliyotga keng qo'llanishi boshlandi, chunki ta'lim hamjamiyati turli xil rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan bolalar va yoshlarni ta'lim muhitiga kiritish zaruriyati va istiqbollarini anglay boshladi. Bu esa, o'z navbatida, imkoniyati cheklangan shaxslarni o'qitishda inklyuziya nomli yondashuv paydo bo'lishiga olib keldi. Inklyuziya so'zi haq-huquqlari bir xil, ammo imkoniyatlari bir xil bo'lmagan shaxslarga tegishli bo'lib, hamma uchun teng imkoniyatlar va sharoitlar yaratilishiga qaratilganligini anglatadi. Inklyuziya nafaqat pedagogik va psixologik, balki ijtimoiy yo'nalishlarni ham qamrab oladigan yo'nalish hisoblanadi. Inklyuziya imkoniyati cheklangan shaxslarni (bolalar, yoshlar va kattalar) ta'lim muassasalarida o'qitishda yangicha yondashuv bo'lib, "Inklyuziv ta'lim" deb nomlanadi. Inklyuziv ta'limning maqsadi – imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida adaptiv moddiy-texnika bazasini va maxsus o'quv-uslubiy vositalarini qo'llash orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga moslashuvi va uyg'unlashuviga xizmat qiladigan ta'lim berishni ta'minlashdir. Bu orqali imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida kamol topishiga yordam beriladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarga faqat kasbiy sohasiga oid bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish emas, balki ularda kundalik hayotda va kelajakda zarur bo'ladigan kreativ, kommunikativ, tanqidiy fikrlash, har qanday masala va muammolarga tezlikda yechim topish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga ham qaratilgan. Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlari turlicha bo'lgan ta'lim oluvchilarning teng munosabatda bo'lishini ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- barcha ta'lim ishtirokchilarida (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar) paydo bo'ladigan muammolarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini, ya'ni bir sinfda yoki auditoriyada birga o'qish orqali bir-birini tushunish va hurmat qilish kabi inklyuziv madaniyatni shakllantirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetentligini oshirish uchun shart-sharoit yaratish;
- ta'lim jarayonida barcha ta'lim oluvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va yoshlarning shaxsiy kreativ kompetensiyalarini, ya'ni aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida barcha ta'lim oluvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv rejalarida ko'rsatilgan fanlarni o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- inklyuziv ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni moslashtirish va qo'llash;
- inklyuziv ta'lim jarayonini tajribali pedagog-psixolog va yordamchi pedagog-o'qituvchi (tyutor) bilan ta'minlash.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan ta'lim tashkilotlarida albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim. Psixologning faoliyati har bir ta'lim oluvchini psixologik-pedagogik jihatdan o'rganib borish va pedagog-xodimlarga ta'lim oluvchini psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatishdan iborat. Tyutor esa, ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan muammolar va qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi, ya'ni ta'lim oluvchining o'quv-tarbiya jarayonidagi ishtirokini ta'minlash hamda ularning individual (moslashtirilgan) ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda yaqindan yordamlashadi. Inklyuziv ta'limning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- barcha ta'lim oluvchilarning teng huquqli ta'lim olishiga imkon yaratadi;
- barcha ta'lim oluvchilarga o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi;
- jamiyatda ijtimoiy tenglik va hamjihatlikni mustahkamlaydi;
- bag'rikenglik munosabatlarini ta'minlaydigan muhitni shakllantiradi;
- iqtisodiyot va jamiyat uchun ko'proq malakali mutaxassislar tayyorlashga yordam beradi.

Mamlakatimizda har bir fuqaro ijtimoiy darajasidan qat'i nazar ta'lim olish huquqiga ega. Demak, sog'lom yoki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktab bitiruvchisi o'ziga munosib professional yoki oliy ta'lim olish huquqiga ega.

Zamonaviy ta'lim tizimi birinchi navbatda ma'lum talablarga javob beradigan va umumiy o'quv rejasiga muvofiq o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxslarga qaratilgan. Binobarin, imkoniyati cheklangan shaxslar umumiy ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun imkoniyat va sharoitlarga ega emas. Chunki imkoniyati cheklangan talabalarning oliy ta'lim muassasalaridagi tahsil olish jarayonida sifatli bilim, ko'nikma va tajribalarga ega bo'lishi uchun bir qator o'quv-uslubiy kamchiliklar mavjud. Masalan:

- oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limga moslashtirilgan uzluksiz, izchil va sifatli o'quv jarayoni tashkillashtirilmaganligi;
- inklyuziv ta'limga moslashtirilmagan maxsus o'quv dasturlarining yetishmasligi, zaruriy adabiyotlar bilan ta'minlanmaganligi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masofaviy ta'lim texnologiyalari, elektron o'qitish vositalariga asoslangan inklyuziv texnologiyalarni rivojlanmaganligi;
- imkoniyati cheklangan talabalarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi inklyuziv ta'lim modelining yaratilmaganligi;

inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi, ya'ni maktab bitiruvchilari o'z ehtiyojlariga mos kasb va o'quv muassasasini tanlashlari, o'qishda va ishga joylashishda yordam olishlari, oliy ta'limning barcha masalalari bo'yicha

maslahatlar olishlari uchun o‘quv tashkilotlari negizida inklyuziv o‘quv-uslubiy markazlarning yetishmasligi va boshqalar.

Ba’zi pedagog-tadqiqotchilar fikricha, oliy ta’lim muassasalarining umumiy ta’lim muhitiga inklyuziv amaliyotni joriy etishning yana bir kamchiligi – bu ta’lim ishtirokchilarining ta’lim tizimida erkin ishtirok eta olmasligi va o‘zini-o‘zi namoyon qila olmasligidir. Ushbu kamchilik o‘quv jarayoni barcha ishtirokchilarining imkoniyati cheklangan talabalarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishning keng va dolzarb muammosi bilan o‘zaro bog‘liqdir, chunki ijtimoiylashuv va integratsiya inson hayotining shakli sifatida barcha ijtimoiy jarayonlarda shaxsning faol ishtirok etishi va erkinligini ta’minlaydi.

Respublikamizda yuqorida keltirilgan inklyuziv oliy ta’limdagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda ushbu ta’lim jarayonini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarida kredit-modul tizimiga o‘tish bilan bir qatorda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar ko‘rsatib berilgan, ya’ni:

- milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;
- ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “E-MINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar (leksiyani boshqa o‘quv xonasidan yoki oliy ta’lim muassasasidan onlayn o‘zlashtirish), “blended learning” (avvaldan yozilgan leksiya va seminar mashg‘ulotlarini uyda o‘zlashtirish) va “flipped classroom” (leksiyani uyda o‘zlashtirish, seminar mashg‘ulotini oliy ta’lim muassasasida bajarish) texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish.

Ta’limda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash tufayli axborot va bilimlar doirasi tez sur’atlarda kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma’lumotlarni faqat auditoriya mashg‘ulotlarida ta’lim oluvchilarga yetkazish qiyindir. Shuning uchun imkoniyati cheklangan talabalarni ta’limning kredit-modul tizimidagi mustaqil ishlash jarayoniga faol jalb etish ularning o‘z kasbiy sohasida zamonaviy mutaxassis bo‘lib yetishishining asosiy mexanizmlaridan biri deb hisoblash mumkin. Inklyuziv ta’limni tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida shaxslarning bir-biriga qo‘shilishi, uyg‘unlashishi va tenglashishi ularning jamiyatga qo‘shilish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi vaqtda inklyuziv yondashuv jamiyat va davlatning iqtisodiy, madaniy va huquqiy rivojlanishning ma’lum darajasiga yetganligini anglatadi. Imkoniyati cheklangan shaxslarning moddiy ehtiyojlarini qondirish va farovon hayotini ta’minlash uchun ular faoliyat yuritadigan sohalarda ham inklyuziya bo‘lishi, ya’ni inklyuziv iqtisodiyot shakllanishi lozim.

Inklyuziv iqtisodiyot – bu barcha insonlar uchun teng imkoniyatlar va foyda yaratishga qaratilgan iqtisodiyot turidir. Unda jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, kam ta’minlanganlar, nogironlar, teng sharoitdagi ayollar va yoshlar iqtisodiy jarayonlarda (ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish korxonalarida) faol ishtirok eta olishadi. Inklyuziv iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir: boylik va resurslarni jamiyatda adolatli taqsimlash, barqaror rivojlanish, barcha uchun qulay imkoniyatlar yaratish, ish o‘rinlarini va tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy himoya va inklyuziv siyosat. Inklyuziv iqtisodiyotning ahamiyati quyidagilardan iboratdir: iqtisodiy o‘sishni barcha qatlamlar uchun foydali qiladi; kambag‘allik va tengsizlikni kamaytiradi; barqaror va adolatli jamiyat yaratishga hissa qo‘shadi. Inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlat siyosati, jamiyat, biznes va har bir inson birgalikda harakat qilishi kerak. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan harakatlar jamiyatda inklyuziv madaniyatni keng tarqalishiga ham xizmat qiladi [11].

Jamiyatda imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan kamsituvchi qarashlar va noto‘g‘ri munosabatlar mavjud. Bunday qarashlarni va o‘zaro munosabatlardagi qiyinchiliklarni bartaraf etish esa jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Inklyuziv madaniyat – bu har xillikni qadrlaydigan, alohida ehtiyojli, imkoniyati cheklangan insonlarni hurmat qiladigan va ularga teng imkoniyatlar yaratadigan ijtimoiy muhit yoki tashkilot madaniyatidir. Inklyuziv madaniyatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir: hurmat va qabul qilish, teng imkoniyatlar yaratish, qamrab olish va ishtirok etishni ta’minlash va boshqalar. Inklyuziv madaniyat jamiyat taraqqiyotining shunday darajasiki, u insonlarning tolerantlik, insonparvarlik, sabr-toqatlilik, adolat va o‘zaro hurmat kabi kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Inklyuziv madaniyatning ahamiyati quyidagilardan iboratdir: jamiyatda tenglik va adolatni ta’minlaydi; shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta’minlaydi; iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarga turtki beradi; ta’limda sifat va imkoniyatlarni oshiradi; yosh avlod uchun mehr-muhabbat va o‘zaro hurmat muhitini yaratadi. Inklyuziv madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak: ma’rifat va ma’naviyatni oshirish, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, ish joylarida inklyuziv muhit yaratish va hokazo. Inklyuziv

madaniyat nafaqat imkoniyati cheklangan shaxslar uchun, balki butun jamiyat uchun foydali bo'lib, barqaror rivojlanish va farovon hayot sari muhim qadam sanaladi. Buning uchun jamiyat, tashkilotlar va har bir inson birgalikda harakat qilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim va uni oliy ta'lim muassasalarida joriy etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- imkoniyati cheklangan talabalar uchun qulay ta'lim muhitini tashkil etish bo'yicha harakatlar rejasini (yo'l xaritasini) ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan talabalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda masofaviy o'qitish jarayonini uzluksiz va izchil tashkil etish;
- imkoniyati cheklangan talabalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning kasbiy-kreativ va iqtisodiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida mustaqil ishlash jarayonini tashkil etish loyihasini ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan talabalar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va inklyuziv ta'limdagi yangi yondashuvlar asosida kasbiy-pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga olgan inklyuziv o'qitish jarayonini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;
- inklyuziv ta'lim sifati va samaradorligini aniqlash me'zonlarini ishlab chiqish, shuningdek, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish.

Demak, inklyuziv ta'limni oliy ta'lim muassasalarida joriy etishda ta'lim muassasasining nafaqat moddiy-texnik va o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirishga, balki imkoniyati cheklangan talabalarni barcha talabalar kabi kasbiy-kreativ hamda iqtisodiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga [11] ham alohida e'tibor qaratish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Андрианова Е.И. Инклюзивное образование: характеристика, сущность, проблемы // Вестник НовГУ. – 2016. – №2(93).
2. Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta'lim makonini barqarorlashtirish hamda uning pedagogik shart-sharoitlarini muvofiqlashtirish: muammo va yechimlari // Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 10. – B. 139–145.
3. Ataboyeva M.B., G'ofurjonova M.A. Inklyuziv ta'limning mohiyati // Pedogogs international research journal. – 2024. – Mart. – B. 119–123.
4. Umaraliyeva M. Inklyuziv ta'lim – barcha uchun teng, munosib ta'lim // Science and Innovation. – 2024. – T. 3. – Maxsus son №35. – B. 149–151.
5. Ibragimov X.I. Yangi O'zbekiston inklyuziv ta'limi: bugungi holat, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari // Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. – 2023. – B. 5–8.
6. Павлова Е.В., Печатнова О.А. Реализация инклюзивного образования в высших учебных заведениях // Теория и методика обучения и воспитания (по областям и уровням образования) | Мир педагогики и психологии. – 2018. – №10(27).
7. Голикова Е.М., Сидорова И.Г. Реализация инклюзивного образования в вузе // Проблемы современного педагогического образования. – 2018. – №58–4.
8. Shoyev A.X. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari // Ekonomika i sosium. – 2024. – №1(116). – B. 1559–1575.
9. Shoyev A.X. Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning ijtimoiy marketingi // Ekonomika i sosium. – 2021. – №1(80), II qism. – B. 737–742.
10. Safarova R.G. Inklyuziv ta'lim jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish omili sifatida // Science and Innovation. – 2024. – T. 3. – Maxsus son №35. – B. 189–191.
11. Akbarova S.Sh. Zamonaviy ta'limda talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish: Monografiya. – Toshkent: Chinor fayzi baland, 2024. – 128 b.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2025. №4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.